

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga 2025-yilning 1-yarmi davomida kelib tushgan murojaatlar bo'yicha tahliliy AXBOROT

2025-yilning 1-yarmi davomida vazirlikka jismoniy va yuridik shaxslardan **280 ta** og'zaki (**6,3%**), **580 ta** yozma (**13%**), **3 572 ta** (**80,7 %**) elektron, jami **4 432 ta** murojaatlar kelib tushgan bo'lib, murojaatlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan **11,3 foizga** (**562 taga**) **kamaygan**.

Kelib tushgan murojaatlarning **13,8%** (**611 ta**) ta'lim muassasasi faoliyatiga oid masalalar, **12,2%** (**539 ta**) diplom masalasi, **9,7%** (**432 ta**) o'qishini ko'chirish va qayta tiklash, **8,9%** (**395 ta**) kontrakt to'lovi, **7,8%** (**347 ta**) ta'lim muassasasi xodimlari faoliyatidan norozilik, **6,6%** (**294 ta**) qabul jarayonlari va o'qishga qabul qilish, **6,2%** (**273 ta**) oraliq nazorat va yakuniy davlat attestatsiyasiga oid masala, **4,7%** (**207 ta**) moliyaviy masalalar (ish haqi, stipendiya, moddiy yordam), **2,6%** (**117 ta**) ish masalasi, **2,1%** (**94 ta**) ma'lumotnoma olish masalasi, **2,0%** (**89 ta**) xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatni tan olish va nostrifikatsiya, **23,4%** (**1034 ta**)ni esa boshqa masalalar tashkil etadi.

Hududlar kesimiga ko'ra murojaatlarning **16,6 %** (**737 ta**) Toshkent shahridan, **11,4 %** (**506 ta**) Qashqadaryo, **9,9 %** (**437 ta**) Toshkent, **9,3 %** (**414 ta**) Samarqand, **7,2 %** (**318 ta**) Jizzax, **6,5 %** (**288 ta**) Farg'ona viloyatlaridan va **39,1 %** (**1732 ta**) boshqa hududlardan kelib tushgan.

Ko'rib chiqish natijalariga ko'ra murojaatlarning **1548 tasi** (**34,9 %**) qanoatlantirilgan, **987 tasiga** (**22,3%**) tushuntirish berilgan, **8 tasining** (**0,2%**) rad etilgan, **6 tasi** (**0,1 %**) ko'rmasdan qoldirildi, **1614 tasi** (**36,4%**) hududiy idoralarga va taalluqliligi bo'yicha tegishli vazirliklarga yuborilgan va qolgan **269 tasi** (**6,1%**) ko'rib chiqilmoqda.

2025-yilning 1-yarmi davomida tasdiqlangan jadval asosida vazirlik rahbariyati tomonidan **9 marotaba sayyor qabullar o'tkazilib**, sayyor qabullarda **106 dan ortiq** murojaatlar ko'rib chiqildi.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida:

talabalar o'qishini ko'chirish **58,8 %**ga, ilmiy-innovatsion va startap loyihalar **37,1 %**ga, talabalar o'qishini tiklash **35,7 %**ga, kontrakt to'lovi masalasi **31,9 %**ga, qabul jarayonlari va o'qishga qabul qilish masalasi **21,8 %**ga, talabalar turar joyi masalasi **17,7 %**ga **kamayishiga erishildi**.

Murojaatlarni **qanoatlantirish darajasi 40 foizga oshirildi**.